OLIY TA’LIM MUASSASASI TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING MAZMUNI

Xasanova Gulnoza Ilxom qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Erkin shaxsni shakllantirish muammosi bugungi kunda ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o‘tkazishni taqozo etayotgan bir vaqtda pedagoglardan xam o‘z kompitensiyasiga ega bo‘lishni toqazo etmoqda. Ushbu maqolada pedagoglarning ilmiy pedagogik kompitentlikka ega bo‘lishlarining mazmuni va axamiyati Haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: aqlan yetuk, ma’naviy shakllangan avlod, davlat talablari, ta’lim-tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: Проблема формирования свободной личности требует перевода воспитательной работы в образовательных учреждениях на современные педагогические технологии, и в то же время требует от педагогов собственной компетентности. В данной статье говорится о содержании и значении педагогов, обладающих научно-педагогической компетентностью.

Ключевые слова: интеллектуально зрелое, духовно сформированное поколение, государственные требования, воспитание, подготовка к школьному обучению, компетентностный подход.

Annotation: The problem of forming a free personality requires the transfer of educational work in educational institutions to modern pedagogical technology, and at the same time, it also requires pedagogues to have their own competence. This article talks about the content and importance of pedagogues having scientific pedagogical competence.

Key words: intellectually mature, spiritually formed generation, state requirements, education, preparation for school education, competency approach.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida shaxsning ma’naviy-ma’rifiy shakllanishi bilan boglik savollarga javob berish, uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat kursatayotgan xodimlarni shu yunalishdagi kunikma va malakalarini oshirishga karatilgan amaliy tavsiyalar berish, ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublarini taklif etish, ularda treninglar va ochik munozaralar utkazish, shuningdek, mashgulotlarni yakka, juftlik, kichik guruxlar va jamoa tartibida tashkil kilish va o‘tkazish xamda ukuvchilarni tarbiyaviy jarayonga jalb etish masalalariga bagishlangan kerakli uslubiy tavsiyalar va maslaxatlarni pedagog kadrlarga yetkazish

xozirgi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamon talabiga mos keladigan Davlat talablarini yangi, qo‘shimchalar kiritilgan variantini ishlab chiqish zarurati ko‘zga tashlanmoqda.. Pedagogika oliy ta’limida bo‘lajak o‘qituvchilarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar, moddiy bazaning elementlari va boshqa ko‘plab vositalar yordamida ta’limga moslashtirish jarayoni amalga oshiriladi. Masalan, bo‘lajak o‘qituvchilarga tushunchalar ustida ishlash, amaliy mashg‘ulotlarni bajarish, nutq boyligini oshirish, mimik va pantomik harakatlardan o‘z vaqtida foydalana olish, bolalar bilan ishlash, o‘quv va pedagogik amaliyot jarayonlarida maktab hayotiga moslashtirib borish kabilar.

Har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo‘lishi kerak. Agar maqsad o‘zgarsa mavjud tizim ham o‘zgarishi muqarrardir. Erkin shaxsni shakllantirish muammosi bugungi kunda ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o‘tkazishni taqozo etayotgan bir vaqtda pedagoglardan xam o‘z kompitensiyasiga ega bo‘lishni toqazo etmoqda. Bunda ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o‘qitish tizimini qat’iyan ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. V.P.Bespalkoning ta’rifiga ko‘ra “pedagogik tizim - ma’lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko‘zlab va oldindan o‘ylab pedagogik ta’sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq vositalar, usullar va jarayonlar yig‘indisidir”.

Ta’lim-tarbiyaning umumiy maqsad va vazifalari - pedagoglarning shaxsiy kompitentligini aniq belgilab beradi yoki oliy ta’lim uchun pedagogik tizimning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, yosh avlodning tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni, shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini щam belgilovchi muxim omil ekanligi ta’kidlanadi. Bu esa pedagogning kasbiy madaniyatga, maxoratga va kompitensiyaga ega bo‘lishi talab etiladi. “Kompetentlik” tushunchasi - ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan yangi tushuncha xisoblanadi. Shu sababli xam kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” qilishni anglatadi.

Pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir. O‘zini o‘zi baholash – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi. O‘zini o‘zi baholash sub’ekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga ob’ektiv baho berish, o‘zidan qoniqishni ta’minlaydi. O‘z-o‘zini baholash shaxsning qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin shaxsni

bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi pedagogning ham o‘zini o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim muassasasi pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi – ularning soxaga oid bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, xamda qarashlarida, shaxsning qadriyati va sifatlarida yoki pedagogik taktikasi xamda ta’sir ko‘rsatish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bunday ulkan mas’uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun pedagogdan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo‘lish talab etiladi. Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘z- o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni kuzata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ta’sir etuvchi vositalarni qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta’limga qaratilayotgan e’tibor barcha pedagog xodimlarning o‘z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi ta’lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo‘shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o‘z navbatida ta’lim muassasasi pedagog xodimlar oldiga yanada yangi vazifalar qo‘yadi. Shunday ekan, xar bir pedagog tarbiyachilarimiz o‘z faoliyatlarida kasbiy kompitentlik asosida yondashuvni tashkil etishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedjanov M.M., Xo‘jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat-Buxoro Davlat universiteti, 2014y.

2. G.I.XASANOVA “Ta’lim jarayonida dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari” Jizzax: 2020. 420 bet. 223-225b

3.Xasanova, G. (2021). Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining Kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782.